



OBLIQDA «OLTIN» TOPDIK

Ishxonaga kelib, xonaga kirgan zahotim telefon qo'ng'irog'iyangradi:

– Angren tumanidagi Obliq qo'rg'oni qishlog'ida «Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan!» mavzusida davra suhbatini o'tkazmoqchimiz. Unga o'quvchilarimiz sizni taklif etishgan, borasizmi?..

Bu savol menga g'alatiroq tuyuldi. Chekka qishloq o'quvchilari taklif etishayotgan ekan, nega bormasligim kerak?! Daftaringa qarasam, o'sha kuni yana uch joyda uchrashuv borligi qayd etilgan ekan. Ularga boshqa xodimlarni yuborishga to'g'ri keladi.

– Albatta boraman! – dedim. Go'shakdan:

– Rahmat, yana telefonlashamiz, – degan ovoz eshitildi.

Davomi 7-betda

Sen olamga kulib boq,
U ham kulsin, qizaloq!

USHBU SONDA:

YAXSHILIKNI
IZLAGAN
BOLA

4-bet

«ZILOLA»DA
«HINDULAR
KUNI»


7-bet

O'QUVCHI YON DAFTARIGA

Aziz o'quvchi!
Gazetamizni o'qib borganlar juda katta foyda topadilar va hayratga tushadilar. Quyidagi ma'lumotlarni yon daftaringizga yozib qo'ysangiz, bir kun, albatta, sizga kerak bo'ladi.

BUNISI YANADA HAYRATLANARLI

Xiva shahri nomi yagona emas ekan. Chita viloyatidagi tog'da Xiva cho'q-qisi bor. Yaponiyada Xiva nomli shahar mavjud. Santo-Damingo davlatiga qarashli Markiz orollarida Xiva deb ataladigan kichik orolning borligiga nima deysiz?! Bundan tashqari, Markaziy Afrikadagi Zimbabve va Kongo davlatlarida xiva qabilalari yashar ekan, bular bizni sira ham befarq qoldirmaydi.



UCHADIGAN MOTOTSIKL




Avstraliyalik Kristofor Mallou ismli 31 yashar havaskor kashfiyotchi uchadigan mototsikl

yaratdi. Mazkur mototsikl yer yuzidan 3000 metr balandlikka ko'tarilish imkoniyatiga ega. U 278 km. soat tezlikda harakatlanadi, deb xabar beradi xorij matbuoti.

QUYOSH VA OY TENGMİ?

Falakshunoslarining ma'lumotlariga qaraganda, yerdan turib Quyosh bilan Oyga qarash burchagi bir xil, ya'ni yarim gradusga teng ekan. Shuning uchun ham ular bir xil kattalikda ko'rinadi. Aslida Quyosh Oyga nisbatan 400 marta katta va 400 marta uzoqlikda joylashgan ekan. Bu holatni Quyosh tutilganda kuzatish mumkin.



(Boshi 1-betda)

Oblıq qo'rg'oni. Ko'rkam, xushmanzara joylar. Dov-daraxtlar soyasidagi supalarda o'tirgan otaxon-u, opaxonlar, o'quvchilar, bog'cha bolalari, ustozlar, mutasaddi tashkilot vakıllari bizni ıliq qarshilashdı.



OBLIQDA «OLTIN» TOPDIK

Yig'ilishni Angren tumanidagi 29-maktab direktori Zarifaxon Shokirova ochdi. Mazkur o'quv dargohi tumanda o'z o'rniga ega. Bu maktabdan elimizga taniqli ko'plab kishilar yetishib chiqqan.

Akademik Abdurashid Hasanov ham shu yerda tahsil olgan. Bugun u taniqli olim, mamlakatimizning noyob xazina izlovchilaridan biri, ko'plab kitoblarning muallifi, ijodkor, samimiy inson.

– Shunday ajoyib uchrasuvlar emin-erkin tashkil etiladigan kunlar kelganidan, juda mamnunman, – dedi u barchani yaqinlashib kelayotgan eng ulug', eng aziz bayram bilan

qutlar ekan. Olim bu qadimiy go'shada juda ko'p qadimiy osori-atiqalar borligini, u yerni o'rganib, mamlakatimiz tarixining hali yoritilmagan jihatlarini ommaga yetkazish yoshlar oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligini alohida ta'kidladi.

So'z navbati O'zbekiston xalq yozuvchisi, Xalqaro Amir Temur xayriya jamg'armasi raisi Muhammad Aliga berilganida, gulduros qarsaklar yangradi. Adib mustaqillik, yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, bugungi o'zbek adabiyotida yaratilayotgan asarlar haqida gapirib, o'z ijodidan namunalar o'qidi. Mushoirani yosh

qalamkashlar davon ettirishdi. Nilufar Norboyeva, Shahlo Shokirova, Madinaxon Sobirova, Gulhayot Erkinovalar Vatan, ona, tabiat haqidagi she'rlari yodimizda qoldi.

Yig'ilish ishtirokchilari Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi deputati, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi raisi o'rinbosari Zarifa Eraliyevaning «Vatan» she'rini hamda «Adolat» SDP vakillarining so'zlarini katta qiziqish bilan tinglashdi.

Viloyat «Oltin Meros» jamg'armasi raisi Zarifaxon Eshmirzayevaning kuyunchaklik bilan bildirgan fikrlari yoshlarda katta taassurot qoldirdi. Yig'ilishdan so'ng o'quvchilar, o'quvchilar davrasida bo'ldik. Ularga kitoblar sovg'a qildik.

Men bir nechta asarlar qatorida «Qora Shahzoda» kitobimni 29-maktab kutubxonasiga sovg'a qilayotganida, ustozlaridan biri: «Bu kitobni nihoyatda katta qiziqish bilan o'qidim. Tariximizda shunday jasur, mard, vatanparvar ayollar bo'lganidan juda suyundim» dedi.

Ustoz Muhammad Ali ijodkor uchun bu oltindan-da qimmatliroq mukofot ekanligini ta'kidladi.

Yozgan asaringiz o'quvchi qalbiga Vatan tuyg'usini jo qilganini ko'rganingizda, har holda mehnatlarim besamar ketmayotgan ekan, deya mamnun bo'lasiz.

Yig'ilishdan qaytar chog'imizda 29-maktab o'quvchilari bilan yana uchrashishga va'da berdik.

To'liqin HAYIT

Baland adirlik yonida oq o'tov tikilgan. G'irg'ir shabada esadi. Hov pastda, o'rkachli, ko'kimtir tog'lar bilan o'ralgan vodi kumush tuman ichida ko'zga g'aroyib tashlanadi.

Oq mayka ustidan yengil qora nimcha kiygan Bo'ribosarov qop-qora yungli ko'kragini shabadaga tutib:

– Oh-oh mazzani qarang, o'g'lim! – deydi o'tov yonida o'yinchoq kamoning iplarini tortayotgan Komilga qarab. Qo'yo'z bola uning kenja o'g'li. O'n ikki yoshda. Har savolga o'n javobi yonida doimo tayyor turadi. Onasi: «Juda gapdon chiqib qoldi o'g'limiz» – deya tashvish qilib qolsa, Bo'ribosarov: – «Dadasiga torgan, hechqisi yo'q, bundan zo'r odam chiqadi» deb keriladi. Kechqurunlari yoniga olib,

KOMIL VA TUVUSHAQON



qayerda qanday ish tutish, kim bilan qanday muomala qilishni qulog'iga quyadi. Shunday damlarda xotini yana: «Bolaning yoshiga munosib gaplarni qulog'iga quysangiz-chi!» – deya unga e'tiroz bildirishga o'tadi. Bo'ribosarov past tushmaydi: «Bobur Mirzo o'n ikki yoshida taxtga o'tirgan. Hechqisi yo'q, oq-qorani taniydigan davri hozir, o'rgansin» deya uning og'ziga urgan bo'ladi. Bugun ham xotini: «Ovga olib bormang, kattalar davrasiga qo'shib, bolani buzyapsiz», deyshiga qaramasdan o'zi bilan birga olib keldi. Ovda odam pishadi.

– Nimani otishni ko'zlayaptilar, o'g'lim? Komil mahmadonalik qildi: – Kit otaman, dada! Kit!

Do'stingiz «Tong yulduzi»ga yoz kunlarida mazza bo'ldi-da! Siz aziz bolajonlarni qanday dam olayotganingizni ko'rish uchun goh tog' yonbag'ridagi oromgohlarga yo'l olsa, goh turli sport inshootlariga, mahallalarga o'tlanadi. Shuningdek, shoir-u yozuvchilar, san'atkorlar-u sport ustalari ishtirokidagi madaniy va ma'rifiy uchrashuvlar, ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etayotgan bolajonlar quvonchiga sherik bo'lmoqda. Bunday intellektual tadbirlar yurtimizning barcha viloyatlarida o'tkazilayotgani bolajonlarning ta'tili maroqli o'tayotganidan dalolatdir.


Yoz nafaqat maktab o'quvchilari uchun, balki bog'cha tarbiyalanuvchilari uchun ham sevimli fasl hisoblanadi. Negaki, bu issiq kunlardan jajji shirintoylar ham unumli foydalanib, quvnoq tadbirlarda ishtirok etib, vaqtlarini mazmunli o'tkazmoqdalar.

Ana shunday qiziqarli tadbirlar poytaxti-

yoz oyida chiniqtirib, ularni sog'lomlashtirish ekan. Bunday tadbirlar musobaqa tarzida o'tkazilgani uchun bolajonlar tarbiyachilari bog'cha

sayohatlar bola dunyoqarashining o'sishiga, ongini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganidan nafaqat tarbiyachilar, balki ota-onalar ham mamnun bo'lyaptilar.

Ayni kunlarda kichkin-toylar yurtimiz mustaqilligining 20 yilligiga bag'ish-



mizdagi «Oftobcha» nomli 154-maktabgacha ta'lim muassasasida ham tez-tez o'tkazib turiladi. Muassasa rahbari Gulchehra Nurmuhamedovanning aytishlaricha, «Quvnoq yoz – o'tmoqda soz!» shiori ostida kichik, o'rta va katta guruhlarda o'tkaziladigan tadbirlardan asosiy maqsad, bolajonlarni

hovlisidagi suv havzasida cho'milib, oftobda toblanmoqdalar. Bundan tashqari, muassasada tez-tez sirk, teatr tomoshalarining tashkillashtirilishi, «Turkiston» saroyiga uyushtiriladigan

langan «Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan!» nomli tadbirga tayyorgarlik ko'rmogdalar. Jajji bolajonlar yod olayotgan she'rlar, kuy va qo'shiqlarini yurtimiz to'yiga sovg'a qilishmoqchi ekanligini eshitganimizda rosti, juda quvondik.

Gulyuz BAHODIR qizi

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanloviga

AKTUBA-ELIM FAXRI

Tog'lar, dalalar, ko'llar, o'rmonzorlar, umuman, insonlarga in'om etilgan ne'matlarning barchasi bizning bebaho boyligimiz va uni asrab-avaylashimiz shart. Ana shunday boylıklarimizdan biri qishlog'imizdagi Aktuba ko'lidir.

Men bo'sh vaqtlarimda Aktuba ko'li bo'yiga boraman. Uning bir-birini quvgan to'lqinlari xayolimni beixtiyor o'g'irlaydi. Suv yoqasiga kelib urilgan to'lqinlar to'plab qo'ygan has-xashaklar orasidan qurbaqalar sakrashib o'ynaydi.

Shunday bir paytda to'planib, suzib kelayotgan oqquvlarni ko'rib, xursandchilim toshib ketadi. Sababi, bobolarim, momolarimning aytishlaricha, qariyb o'ttiz yildirki, bu ko'lga oqquv kelmagan ekan. 75 yoshli bobom Karamatdin Jalolovga oqquvni ko'rganimni aytganimda, ular ham quvonib, menga ko'l haqida hikoya so'zlab berdilar.

Ayrim afsonalarga qaraganda bu yerdan Amudaryo oqib o'tgan, keyinchalik u yo'nalishini o'zgartirib, ko'l paydo bo'lgan ekan. Ko'lining oqib ketadigan yeri bo'lmay, to'yi (yopiq) bo'lishi, ko'l tuzining oq rangda bo'lgani bois Aktuba deya nom olgan. Oq – tuz, tuba esa suvning to'planib qolishini anglatadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Aktuba ko'lga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, odamlarning ko'lga nisbatan e'tiborsizligiga chek qo'yildi. Unga kuz va bahor faslida suv yuborilib, ko'lining tabiiy ahvolini asrab qolishga harakat qilinmoqda.

Ayjamol KARAMATDINOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Kegayli tumanidagi
11-sonli umumta'lim maktabining
6-sinf o'quvchisi

Bo'ribosarov daryoga, pastga tushib kelayotgan boshlig'i Sattorov bilan Mergan o'rtog'ini kuzata turib:
– Bu daryoda kit bo'lmaydi, o'ylab gapiring, o'g'lim! – deya tanbeh berdi.

Komilning ko'zlari cho'g'dek qizardi. Bo'ribosarovning yuragi muzlab, oyoqlari qaltiradi. Xotinning gapiga ham quloq solish kerak ekan. Ishqilib, qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarmadimi?..

Ular tushgacha baliq ovlashdi. Tepakal Sattorov uch dona laqqa tutdi. Merganning qarmog'iga bir dona sazan tushdi. Bo'ribosarov to'r bilan bir chelakni to'ldirdi. Komilning kamoni esa ish bermadi. Izza bo'lgisi kelmadi shekilli, o'tovga ketib qoldi.

Bo'ribosarov uning ortidan tikilib qoldi. Achchig'i chiqqan bo'lsa, o'sha yerda hovuridan tushadi.

Ular yana bir soat baliq ovlashdi.

Qarmoq tashlash uchun qalin yulg'un orasidan o'tayotgan Sattorov birdan:

– Ana tovushqon! – deya baqirib yubordi.

Bir juft kulrang tovushqon butalar orasidan sakrab chiqib, adirlik tomon qochdi. Qiziqqon Mergan ularning ortidan otildi. Sattorov ham «hay-hay»laganicha yugura ketdi. Bo'ribosarov uning ortidan chopdi.

Tovushqonning kattarog'i chap tomonga burilib, quyuq yulg'unzorga o'zini urdi. U tomonga o'tish

mushtul. Sattorov ikkinchi tovushqonning oldini to'sdi:

– Buni qo'ldan chiqarmaslik kerak! Go'shti shirin bo'ladi! Ehtiyot bo'linglar, yulg'unzor tomonga o'tmasin!

Tovushqon adirlikdan yuqori ko'tarildi.

Mergan sherdek sakrab, qo'lidagi tayoq bilan uning orqa oyog'iga zarb berdi. Tovushqon to'lg'anib yerga quladi, lekin shu zahoti o'midan turib, o'tov tomon yugurdi.

Bo'ribosarov yengil tin oldi. Komil uni otib olishi mumkin. Unga ham ovunchoq topildi. Lekin shovqin-suronni eshitib turgan bo'lsa-da, o'g'lining o'tovdan chiqmagani uni xavotirga soldi. Shu asnodan tovushqon ichkariga o'zini urdi.

Sattorov o'tov oldida to'xtab, ko'ksini siladi:

– Mazza qiladigan bo'ldik!

Avval Bo'ribosarov, uning ortidan Sattorov va Mergan ichkari kirishdi.

O'rtada dasturxon yozilgan, Komil bir bo'lak go'shtni nonning ustiga qo'yib, og'ziga tiqdi. Tovushqon uning orqasida ko'rpachada cho'zilib yotardi. Mergan bir qadam oldinga yurdi va:

– Hey, uka, tovushqonni baqqa uzatib yubor! – dedi nopisandlik ovozda.

Komil pinagini buzmadi.

Bo'ribosarov «olib ber» degandek imo qildi.

Sattorov tovushqon tomon qo'l cho'zdi:

– Olib ber uni, bolakay!

Komil og'zidagi luqmani yutgach:

– O'lja sizlarniki! – dedi xuddi kattalardek. – Lekin u meni o'tovimda mehmon hozir. Uni sizlarga berolmayman.

Sattorov istehzo bilan jilmayarkan:

– O'g'ling zo'r-u! – dedi Bo'ribosarovga qarab.

– Bo'ribosarovning nigohini qora bulut bosdi.

O'g'li uning holatini sezib:

– Dada?.. Uyg'a kelgan mehmonning izzatini joyiga qo'yish kerak, deb o'zingiz aytgansiz. Tovushqonni sizlarga bersam, nasihatigizga quloq solmagan bo'laman, to'g'rimi?

Bo'ribosarov «foydasi yo'q» degandek, qo'lini ikki yonga yozdi.

Mergan «tushnamdim», degandek Sattorovga qaradi.

Komil tovushqonni qo'lga olib, uning yarador oyog'ini doka bilan bog'lab qo'ydi-da:

– Qo'rqma, jonivor, hademay tuzalib ketasan. So'ng o'zim seni uyangga olib borib qo'yaman! – dedi ostonada turganlarga e'tibor ham bermay.

SHAHOZA

SHOIR BILAN

Toshkent shahar Mirobod tumanidagi 328-maktab qoshida tashkil etilgan «Qaldirg'och» oromgohiga 105 nafar bolalar jalb qilingan.

Bu yerda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi she'riyat bo'limi boshlig'i, taniqli shoir Tursun Ali bilan uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda maktab direktori Feruza Gaziturova, oromgoh rahbari Zulfiya Otajonova, maktab kutubxonachisi Feruza Ne'matova so'zga chiqishdi. Oromgoh tarbiyalanuvchilaridan Feruza Sobitova, Gulmira Mo'minova, Gulmira Rahimova, Mirsalom Mirhaitov, Bilol Karimov she'r va qo'shiqlar ijro etishdi. Dam oluvchilar sevimli shoirlari she'rilaridan bahramand bo'lib, undan o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.


Saboxon HOTAMOVA, Chilonzor tumanidagi 181-maktab o'qituvchisi

JAJJI
BARMOQLAR
SEHRI

Fazilatxon Isayeva Shayxontohur tumanidagi 102-maktabning 3-sinfini muvaffaqiyatli yakunladi. Ta'tilda bajaradigan ishlarini rejalashtirib olgani uchun ham ta'til kunlari unumli va maroqli o'tayapti. O'yijonisiga uy ishlarida ko'mak-



lashib, so'ng sevgan mashg'uloti — rasm chizish bilan band bo'lmoqda. Fazilatxonning e'tiboridan hech bir narsa chetda qolmaydi, ertak qahramonlari deysizmi, tog' bag'rimi, g'arq pishgan mevalarmi barcha-barchasi uning rasmlarida aks etadi.



A.ABDULLAJONOV

UCHRASHUV

G'afur G'ulom nomli madaniyat va istirohat bog'ida «Qo'g'irchoqbozlik san'ati» IV an'anaviy Respublika festivali

QO'G'IRCHOQLAR
QUTLOVI

Mazkur festival O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik hamda axborot markazi, «O'zbekteatr» ijodiy ishlab

chiqarish birlashmasi, Respublika «Hunarmand» uyushmasi, Respublika «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi, Xalqaro «Oltin meros» xayriya jamg'armasi hamda G'afur G'ulom nomli madaniyat va istirohat bog'i ma'muriyati hamkorligida tashkil etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlaridan festivalga tashrif buyurgan qo'g'irchoqsoz usta va hunarmandlar o'z ijod mahsuli bo'lgan turli qo'g'irchoqlari, hamda teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari bilan ishtirok etdilar. Turli buyumlardan yasalgan, kishiga bir olam zavq ulashuvchi o'ziga xos uslubda yaratilgan, rang-barang qo'g'irchoqlar barchada katta taassurot qoldirdi. Festivalda ishtirok etgan «Karvonsaroy», «Shum bola» kabi ko'plab teatr jamoalarining chiqishlari bolajonlarga bir olam quvonch ulashdi.

Nazokat AHMEDOVA



YAXSHILIKNI IZLAGAN BOLA

Hozir men sizga bir gapni aytsam, ishonmasligingiz aniq. Maktabda o'qib yurgan paytlaringiz geografiya fanidan dars beradigan o'qituvchimizning ismlarini ko'pchiligimiz bilmasdik. Ustoz har doim yaxshi baho olganimizda yoki boshqa biror yutuqqa erishganimizda zavqlanib, «yaxshi-yaxshi» degan iborani bir necha bor takrorlardilar. Shuning uchun ham u kishini «yaxshi muallim» deb atardik va alqashini eshitish harakatida bo'lardik...

Bir kuni qiziq bo'ldi, bir sinfdoshimiz tanaffus paytida yiqilib, peshonasini g'urra qilib oldi. Ikkinchi dars «yaxshi muallim»niki edi. Peshonasi og'riyotgan o'rtog'imiz og'riqdan zo'rg'a turardi. Shu payt ustozning ko'zlari unga tushdi.

— Nima bo'ldi, Parpiyev? — deb so'radilar.

— Yiqilib tushdim, — dedi u yig'lamsirab.

— Ha, yaxshi-yaxshi, — dedilar ustoz avvaliga. Keyin esa doimiy odatlari bo'yicha gapirib yuborganlarini o'zlari ham sezib qoldilar.

— Ko'zingga qarab yurmaysanmi? Odam ehtiyot bo'lishi kerak...

Biz esa qotib-qotib kuldik. Boshi og'riyotgan o'rtog'imiz ham beixtiyor kulib

yubordi. O'sha kuni yaxshi muallim bizga qiziq topshiriq berdilar. Hammamiz ertaga uydin maktabga kelguncha yaxshilik qilib kelishimiz kerak ekan. Eng ko'p yaxshilik qilgan bolaga a'lo baho va'da berildi. O'shanda o'zimam rosa g'iy-nalgan edim. Qani endi yo'ldan o'tolmayotgan birorta qariya uchrab qolsa-yu, yordam berib yuborsam yoki qo'lida og'irroq xalta ko'targani uchrasa ham mayli edi, yordamlashar-

dim. Aksiga olib, unisi ham, buni ham uchradi. Boshqa sheriklarim kabi men ham a'lo bahodan quruq qoldim. Yoshim ulg'aygach, buning osonligini bilib oldim. Yaxshilik qilish juda oson ekan. Ha, judayam oson! Ishonmayapsiz-a? Unda quloq soling.

Siz ertalab biror yerga yo'ldingiz. O'zingizdan kattalarga tavoze bilan salom bering. Bu ham yaxshilik. Yo'lda yotgan toshni yoki bir parcha qog'ozni olib, chiqindi qutisiga tashlang. Bu ham yaxshilik. Ko'changizdagi daraxt tagiga suv quyung...

Endi esa bu kabi yaxshiliklarning yana qanchasi yo'lingizda uchrashini bir o'yab ko'ring. Ular juda ko'p. Bunday ishlarni muntazam bajarishga harakat qiling. Shunda bahoingiz a'lo bo'ladi. Ismingizga esa, yaxshi bola, degan ta'rifni qo'shib aytishlariga aminnan.

Yusuf ABDULLAYEV

«Mehrjon» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanida joylashgan bo'lib, uning so'lim bag'rida 220 nafar bolajonlar ta'til gashtini surmoqdalar.



«MEHRJON» GA MEHMON KELDI

Xorazm viloyatining Xiva shahridagi Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, shuningdek, Toshkent shahrining Yunusobod tumanida joylashgan 31-sonli maktab-internat o'quvchilari bu maskanda ular uchun yaratilgan shart-sharoitlardan behad mamnunlar.

Bolajonlar tarbiyachi va yetakchilari boshchiligida shunday ajoyib tadbirlar, qiziqarli bellashuvlar o'tkazishadiki, oromgoh bosh tarbiyachisi Nafisa

Shokirova, bosh yetakchi Gulbahor Karimova, hatto oromgoh direktori Xosiyat Turg'unboyevalar ham o'yinga kirishib ketishganini sezmay qolishadi.

Taniqli shoir va yozuvchilar, san'atkorlar bilan bo'ladigan ijodiy uchrashuvlar ham juda maroqli o'tadi. Ayniqsa, kuni kecha oromgohga mehmon bo'lib kelgan «O'zbekim yoshlari» dastasining yakkaxon xonandasi Dilshodali Imomaliyev ijrosidagi qo'shiqlarni dam oluvchilar maroq bilan tinglashdi.

Siz suratda ko'rib turgan mana bu jaji shirintoylar Samarqand shahrida joylashgan 50-maktabgacha tarbiya muassasasida tarbiyalanishadi. Fotima opa Toshpo'latova rahbarlik qilayotgan bu xushmanzara bog'chada kichkintoylarning sog'lom, bilag'on va zukko bo'lib kamol topishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Erta tongda bog'cha opalari bilan birgalikda bajaradigan badantarbiya mashqlari ularga

ham maromiga yetkazishadi. Shunday kunlarda qizlar «mali-ka»larga, o'g'il bolalar esa naq

ISHDA UNUM BO'LADI

kun davomida tetiklik, ko'tarinki kayfiyat baxsh etadi. Alifbodan, hisobdan o'tiladigan mashg'ulotlar esa aqliy salohiyatlarini oshiradi. Kichkintoylar bayram, tantana va tadbirlar o'tkazishni

«shahzoda»larga aylanib qolishadi, go'yo.

Bog'cha mudirasi yana bir xayrli ishga qo'l urgan: yaqin atrofdagi mahallalarda yashovchi kam ta'minlangan oila farzandlaridan 15 nafari bog'cha qoshida

ochilgan «Mohir qo'llar» to'gariga qatnab, yumshoq o'yinchoqlar yasashni o'rganishyapti. Bu mashg'ulotlar yozgi ta'tilni uyda o'tkazayotgan bolajonlar uchun ayni muddao bo'lyapti.

Onalarning ishida qachon unum bo'ladi? Qachonki farzandlaridan ko'ngli xotirjam bo'lsa, shunday emasmi? Bu so'lim go'shada mehribon tarbiyachilar qo'lida kamol topayotgan jajjilardan, hunar o'rganayotgan o'g'il-qizlardan onalarning ko'ngli xotirjam. Demak, ular qay jabhada mehnat qilishmasin, ishlarida unum, baraka bo'ladi.

OROMGOHLAR A'LOSI

Go'zal O'zbekistonimiz gavhari sanalmish Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida biri-biridan xushmanzara oromgohlar talaygina. «Toshkentgazta'minot» unitar korxonasi tasarrufidagi «Zangori olov» bolalar oromgohi ham ana shunday so'lim maskanlardan biri. Bu go'shada miriqib hordiq chiqarayotgan 250 nafar o'g'il-qizning 90 nafari Xorazm viloyatining Xonqa tumanidan kelishgan. Oromgohdagi o'yingohlar, sport maydonchalari, suv havzasi, kitoblarga boy kutubxona ular ixtiyorida.

Qani, o'qib ko'raylik-chi, bu maskanda dam oluvchilarning taassurotlari qanday ekan:

– Bir necha yildirki, shu oromgohda dam olaman,– deydi Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 244-maktab o'quvchisi Jasur USMONALIYEV. – Ikki-uch yil avvalgi oromgoh bilan bugungisini qiyoslasak, ijobiy o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Suv havzalari almashtirilgan, sport jihozlari yangilangan. Oshpaz xolarimiz tayyorlagan ovqatlari biram mazaliki, asti qo'yaverasiz. Bir so'z bilan aytganda, bu oromgohda hech bir bola zerikmaydi.

Go'zal ESHONQULOVA, poytaxtimizdagi 238-maktab o'quvchisi:

– «Zangori olov» men uchun barcha oromgohlardan a'lo. Har bir kunimizning qiziqarli o'tishida oromgoh rahbari Yo'ldosh aka Xolmetovning, tarbiyachi va yetakchilarimizning hissalarini katta. Ular barcha sharoitlarni yaratib berishga harakat qilishadi.

Oromgohda o'tayotgan har bir tadbirdan, ayniqsa, uning tantanali ochilish va yopilish marosimidan olgan taassurotlarimni sinfdoshlarimga albatta, so'zlab beraman.

Zarifa QULMURODOVA





NASIHAT

Bu dunyoga kelib yosh bola,
Unib-o'sdi, ko'kka bosh tegdi.
Keksayganda ayladi nola,
Hayot uning qomatin egdi.

Duldul otga mindi mansabdor,
Hech burilmay chapga yo'l oldi.
Otdan tushdi chekkancha ozor,
Oyog'i shol, yurolmay qoldi.

Otasini ranjitib bir kun,
Uzoq ketdi olmadi xabar.
Ota bo'lib qolganda beun,
Safar qildi olisga padar.

Otam deydi: Alisher bolam,
Ezgu yo'ldan aslo qayrilma.
Yurting uchun joningni berda,
Vataningdan aslo ayrilma.

Alisher AHMEDOV



HUR MAKONIM

Osmonimda porlab turgan quyoshimsan,
Chiroyimga chiroy qo'shgan ko'z-qoshimsan,
Go'zallikni madh etuvchi yo'ldoshimsan,
Avlodlarning kelajagi sharaf-shonim,
Biz yoshlarning kamolisan onajonim.

Boshginamda tinchliksevar Humo qishi,
Bu tuprog'ning sehlidir yozu qishi.
Bizga havas qilar ko'rgan har bir kishi,
Avlodlarning kelajagi, sharaf-shonim,
Biz yoshlarning kamolisan hur makonim.

Zulfizar XUDOYQULOVA,
Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi
3-umumta'lim maktabining
8-sinf o'quvchisi

O'ZBEKISTONIM

Uzatsa, ko'klarga yetar qo'llari,
Domio charog'on erur yo'llari.
Gulzorga aylandi hatto cho'llari,
Yashnab borayapti O'zbekistonim!

Bugun jamoliga lol qolar jahon,
Ko'rkiga ko'rk qo'shar zamin-u osmon,
Gullarga burkanib yurgin har zamon,
Ey, aziz ona yurt, O'zbekistonim!

Feruz TO'XTAYEV,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog'
tumani, Chag'atoy qishlog'i



BARKAMOL AVLOD

Diyorimiz bag'rida,
Baxt, kamolga yetamiz.
Yuksak maqsadlar qilib,
Yurti obod etamiz.

Oromgohlar bag'rida,
Kuch-quvvatga to'lamiz.
Kelajakda munosib
Yurti farzandi bo'lamiz.

QISHLOG'IM - QALB ARDOG'IM

Qishlog'im - qalb ardog'im,
Degan so'zlar dilimda.
Uning ko'rki, jamoli,
Ta'rif topar tilimda.

Bag'ringda kamol topdim,
Mening tiniq bulog'im.
Baxtimni senda topdim,
Qalb ardog'im - qishlog'im.

Nargiza ASOMIDDINOVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston
tumanidagi 37-maktab o'quvchisi



BIZ KIMMIZ

O'ylasam kimmiz bu hayotda asli,
Insonmi, nodonmi befahm o'g'ri.
Har kim har xil o'ylar o'zicha naslin,
Barchaga o'z fikri ko'rinar to'g'ri.

Yo'q bo'lsa yo'g'iga qilmaymiz sabr,
Bor bo'lsa boriga etmaymiz shukur.
Bersa ham noliymiz boylik beqadr,
Notavon bandamiz balki beg'urur.

Erishding istaging oshdi amalga,
Orzuimga ushaldi chiqdi ro'yobga,
Unutma kim berdi bularni senga,
Borliqning berganin unutding nega?!

Behzod TILLABEKOV,
Toshkent shahri, Olmazor tumani

(Boshi o'tgan sonlarda)

- Tuproq kechmasang-chi,
sho'rlik oyoq Xudoga nima
yozibdi?

- Mashina yo'lga tosh
tashlama, betamiz, g'ildirakka
tegsa qaytib o'zingga sap-
chiydi!

- Tepishga boshqa narsa
qurib ketganmi, nega papkani
tepasan, kitob uvul-ku! - kabi
dag'dag'a va po'pisalarini
deyarli har kuni eshitaverib,
yodlab olgandik. Bu gaplar
bizning jahlimizni chiqarib
o'chakishtirar, ataylab cholning
jig'iga tegadigan ishlar qildardik.

Ko'klam paytlari. Hozirgina
dadamga kavlatib olgan nok va
chinor ko'chatlarini ko'tarib
maktabga ketayotgandim, chol
to'xtatib qoldi. Bu gal u qo'-
limga qarab turib:

- Barakalla, bolam, yaxshi
o'ylabсан, bularni maktabga
olib boryapsanmi? - dedi.

Undan birinchi marta shirin
so'z eshitayotganim uchun
angrayib qoldim.

- Daraxt ekkан odam o'z
umriga umr qo'shadi, - davom
etdi u, - xo'p desang, chino-
ringni mana bu yerga o'tqaz-
sak, a labbay? Yo'l usti, ikki-

uch yilda binoyiday o'sib atrofiga
soya tashlab qoladi. Nokni mayli,
maktab bog'iga ekaver. Faqat
nishonasi menga olib kelasan,
kelishdikmi?

Men ikkilanib qoldim. Axir
o'qituvchimiz ikki tupdan
ko'chat keltirishni buyurgan-

ko'zi uzoqda atrofga quyuq soya
tashlab turgan daraxtga tushibdi.
To'satdan oyoqlariga jon kiribdi,
tomirlariga qon yuguribdi.
Allaqanday kuch uni o'sha da-
raxt tomon yetaklabdi. Bir amal-
lab u yerga yetib boribdi. Salqin
shabadada rohatlanib, tashnaligini

shu gaplar o'tib turgan ekan-u,
lekin qushlarning bu olqishi
uning hasadini qo'zg'abdi.

Alqissa, so'rab-surishtirib
daraxt ekkан odamni topibdi. U
qarib, munkillab qolgan, choro-
nochorlikda kun kechirayotgan
chol ekan. Haligi kishi cholning
ko'nglini topib, ko'p sovg'a-sa-
lomlar evaziga daraxtni o'ziniki
bo'lganligi haqida xat qildiribdi,
daraxt yoniga qaytibdi-da,
xotirjam yonboshlabdi. Shu payt
qushlar xonish boshlabdi. Kishi
e'tibor bilan tinglasa, ular tag'in
«daraxt ekkanga rahmat, daraxt
ekkinga rahmat» deyishayot-
ganmish. Shuncha yugurib-
yulgani zoye ketganini bilib
peshonasiga bir uribdi-da,
o'rmdan turib ketibdi. Va shu
yerdan ulkan bog' yaratishga
kirishibdi. O'sha bog' hanuzga-
cha bor. Uni el «Haydarbog'» deb
ataydi, - hikoyasini tugatdi chol.

O'sha kuni men chinorimni
shundoqqina ariq bo'yida qol-
dirib ketdim. Lekin yuragimda
«badqovoq» cholgа nisbatan iliq
mehr uyg'ongandi.

Oradan yillar o'tdi. Nokning
nishonasi ni yeyish unga nasib
qilmadi, o'sha voqeadan yil
o'tar-o'tmas olamdan o'tdi.

ODAMNING O'RNI

dilar-da... Ketvoray desam...

Chol o'ylanib qolganimni
ko'rdi-da, belidan nosqovog'ini
olib, tilining tagiga nos tashladi.
Keyin qo'li bilan o'tirishga ishora
qilib, soqovlanib gap boshladi:

- Men senga bir hikoyat aytib
beraman.

Bir kishi sahroda adashib
qolibdi. Jazirama issiq, tashnalik
obdon tinkasini quritibdi. U ha-
yotdan umidini uzib, olisga, yurti
tomonga termulibdi. Shu choq

ham unutilibdi. Mudragan ko'yi
qushlar chug'uriga quloq tutibdi.
Qushlar sahra qo'ynida «daraxt
ekkinga rahmat, daraxt ekkanga
rahmat», deb sayrashayotgan-
mish. Kishining xayolidan ham



Muhabbat HAMIDOVA

Kampirini esa allaqayerda
yashaydigan o'g'li ko'chirib
ketdi.

Cholning vafotidan keyin
nazarimda qishlog'imizdan
fayz ko'tarilganday bo'ldi.
Bizning bor-yo'qligimiz bilan
birovning ishi bo'lmay qoldi.
Dorixonada atrofidagi olchalar-
ning mevasini terayotib, shox-
larini sindirib ketishdi. Ayrimlari
qurib, o'tinga aylandi. Bolalar
bog'chasi atrofidagi gulzorning
avvalgi tarovati yo'qoldi. Yog'
tushsa yalagudek turadigan
avtobus bekati endi har xil
qog'ozlar, pista po'choqlaridan
ivirsib yotadigan bo'ldi. Juma-
voy cholni qarq'ab yuradigan
pistafurush Ro'zixolaning
oshig'i olchi, chunki hech kim
«pista sotma», deb uni urish-
maydi. Faqat huv o'sha, ikka-
lamiz ekkан chinor qiyofasida
bog'bon cholni ko'rganday
bo'ldim. Shu chinorga, uning
shabadada yengil raqs tusha-
yotgan yaproqlariga qarab
turib, o'sha «mijg'ov» chol-
ning odamlar qalbida nechog'-
lik katta o'rni bo'lganligini his
qildim.

(TAMOM)

SHODIYONAGA CHORLAGAN «KAMALAK»

Aziz bolajonlar! Siz yurtimizda qizg'in faoliyat ko'rsatayotgan Respublika «Kamalak» bolalar tashkilotini yaxshi bilasiz. Serg'ayrat kengash a'zolari hamisha ezgu loyihalar, quvnoq tadbirlar bilan band. Biz kecha Toshkent shahar «Kamalak» bolalar tashkilot a'zolari bilan tog' saylida birga bo'ldik. Xalq ta'limi vazirligiga qarashli Bo'stonliq tumanidagi «Mehribonlik» oromgohiga kirib borganimizda Quyosh endigina uyqudan bosh ko'tarayotgandi. Hamkorlarimiz bilan birgalikda «Baxtli bolalik» loyihasi doirasida turli tadbirlar, musobaqalarni boshlab yubordik. Biri-biridan qiziqarli, quvnoq musobaqalarning yanada mazmunli o'tishida esa kamalakchilarning hissasi katta bo'ldi. Fursatdan foydalanib ishtirokchilarni suhbatga tortdik.

GIYOHLAR BILAN «TILLASHAMAN»

O'g'iljon SHOMURODOVA, Xorazm viloyatidagi 20- sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi, 5-maktabning 6-sinf o'quvchisi:

– Bu oromgoh menga yaxshi tanish. Ayniqsa, uning «Tog' sayohati» to'garagi mashg'ulotlarini juda yaxshi ko'raman. To'garak rahbari Jo'raxon aka bizga har bir giyohning shifobaxshligi haqida gapirib beradilar. Tabiat bebaho ne'mat ekanligini doimo ta'kidlaydilar. Giyohlar bilan «tillashish»ni ustozdan o'rganyapman.

SO'ZLARI DADILGINA

Oromgohda jussasi kichikkina, ammo so'zlari dadilgina Azizjonni hamma taniydi. Chunki u har bir musobaqada faol qatnashadi. U bilan tanishib turganimizda oromgoh rahbari Ibrohim aka:

– Azizjon o'g'lim, sen bugun finalda o'ynaysan, – dedilar.

Bu gapni eshitgan bolakay osmon bo'yi sakradi. Uning quvonchiga sherik bo'lar ekanmiz:

– Futbolni yaxshi ko'rasanmi? – deb so'radik.

– Albatta. Biz jamoamiz bilan g'oliblikni qo'ldan bermayapmiz.

Ammo boshqa guruhlardagilar «sen bir yosh kattasan» deya meni finalda o'ynashimga norozi edilar. Ibrohim aka menga ruxsat berganlaridan juda xursandman, – dedi sevinchini ichiga sig'dirolmay Toshkentdagi 22-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi, 7- sinf o'quvchisi Azizjon TANGRIYEV.

SEVINCHIM CHEKSIZ

Oromgohda iste'dodli bolalar juda ko'p ekan. Ulardan biri Kirill o'zining namunali xulqi, faolligi va sportsevarligi bilan ajralib turarkan. Sof o'zbekchada gapiradigan bu bolakay barchaning e'tiborini qozonibdi.

Kirill FYODOROV,

Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 3-maktabning 5- «A» sinf o'quvchisi:

– Kecha «Mehribonlik» oromgohimizda yana bir katta tadbir bo'lib o'tdi. Biz unda o'z iste'dodimizni namoyon etdik. Men suzish, yugurish musobaqasida ishtirok etib, faxrl o'rinni egalladim. Bundan juda xursandman.


TOG' ODAMI

Oromgohning «O'lkashunos va ekolog sayohatchilar» to'garagi rahbari Jo'raxon aka Berdiyev oltmish yetti yoshda. Ammo yoshlardek serg'ayrat, tinib-tinchimas, ko'ngli bola kabi beg'ubor bu insonni biz ham yaxshi ko'rib qoldik.

To'garak a'zolarini har kuni tog' sayohatiga ergashtirgan tajribali ustozning darsi tog'lar bag'rida o'tadi. Cho'qqidagi noyob sharsharaga, «Uyqudagi go'zal» tog'iga eltuvchi oson yo'lni ustoz yaxshi biladi. Bejizga Jo'raxon ota «Tog' odami» degan nom olmagan-da.



Oromgoh rahbari Ibrohim aka NURMETOV bolalarning eng yaqin do'sti.



Tibbiyot fanlari nomzodi, Karim aka TOLIBEKOV oromgohning mehribon shifokori.



«ZILOLA» DA «HINDULAR KUNI»

«Suvsoz» davlat unitar korxonasiqa qarashli «Zilola» oromgohida 280 nafar bolajonlar dam olmoqdalar. Kutubxona mudirasi Shohista opa Ibragimova ularning eng yaqin do'stiga aylangan.

Ayniqsa, oromgohning futbol maydonchasidagi quvnoq o'yinlar, suzish havzasidagi musobaqalar, rasmlar chizish tanlovi, kitobxonlar bellashuvlari oromgoh kun tartibining eng maroqli tadbirlaridir.

– «Hindular kuni» sport musobaqalarida

o'quvchilar turli bo'yoqlardan foydalanib, o'yin zavqini oshirmoqdalar. «Sharq bozori» deb nomlangan tadbirimizda esa bolajonlar tadbirkorlik sirlarini o'rganmoqdalar. Shuningdek, hayvonot bog'iga, tabiat va tarix muzeylariga sayohatlar ular qalbida ona Vatanga cheksiz mehrni kuchaytirmoqda, – deydi oromgoh rahbari Zulayho opa Ergasheva.

Sahifani MA'MURA va FERUZA tayyorlashdi



1. «Bola Alisher» asarini kim yozgan?
a) Oybek;
b) Mirtemir;
v) Asqad Muxtor.

2. Matnda qaysi fasl ko'zda tutilgan? «Dimog'larni chog' qiluvchi sabo yeli ko'tarildi, butun olamga mushkunbar hidi taraldi».

3. 90 ni to'rtta son: 1, 2, 3, 5 ga ketma-ket bo'lgach, so'ng natijani 30 ko'paytirib, necha hosil bo'ladi?

4. 4, 9, 25, 49 lar «xasis sonlar», Nima uchun?

O'ZINGNI SINAB KO'R

Eng yaxshi javoblarga ajoyib kitoblar jo'natiladi.

Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanı hokimligi tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlab Kitob tumanida «Kitob gurunglari» nomli adabiy uchrashuv o'tkazildi.



KO'HNA KITOB

Uchrashuvda kitoblik olimlar va shoirlar, jurnalist, san'atkor hamda Qashqadaryo viloyati ommaviy axborot vositalarida xizmat qilayotgan ijodkorlar ishtirok etishdi.

3-sonli akademik litsey o'quvchilari hamda kasb-hunar kolleji talabalari bilan bo'lgan uchrashuvda O'zbekiston xalq hofizi O'lmas Saidjonov, olim va noshir Mahmud Sattorov, olim, jurnalist Yusuf Hamdamov, shoirlar Rustam Musurmon, Norqobil Jalil so'zga chiqib, o'z ijod namunalaridan o'qishdi.

Akademik litseyning a'lochi bitiruvchilariga imtiyozli diplomlar topshirish marosimiga shohid bo'ldik.

Diplomlarini taniqli olim, san'atkor, ijodkorlar qo'lidan qabul qilib olgan yoshlarning qalbida bu ajoyib lahzalar bir umr muhrlanib qolsa, ajabmas.

Jamoliddin HAMDAMOV,
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti qoshidagi
2-akademik litsey bitiruvchisi

Sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ning o'tgan sonida Sirg'ali tumanidagi 322-maktab qoshida tashkil etilgan «Qo'ng'iroqcha» oromgohimiz haqidagi maqolani o'qib, xursand bo'ldik.



«QO'NG'IROQCHA» DAN TASHAKKURNOMA

Oromgohimizda dam olayotgan 125 nafar bolalarning ko'ngilli hordiq chiqarishlari uchun qo'limizdan kelganicha yordam ko'rsatmoqdamiz. Birinchi mavsumda dam olgan bolalar o'zlarining quvnoq she'r va qo'shiqlari, raqslari bilan bizni mamnun etib ketishdi. Ikkinchi mavsumni ham ko'ngildagidek o'tkazish uchun astoydil harakat qilyapmiz. Maktabimiz

direktori Barno Turg'unova, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Dilbar Yoqubova, oromgoh rahbari Muhabbat Mo'minova, shifokor Marina opa, hamshira Nazokat Mo'minovalarning xizmatlarini alohida ta'kidlagim keladi.

Noila UNGAROVA,
bosh yetakchi

Ayni vaqtda Yunusobod tumanidagi 58-, 70-, 86-, 240-, 274-maktablar qoshida tashkil etilgan bolalar yozgi oromgohlari bag'rini 600 nafardan ziyod bolajonlar oshyon etishgan.

HAMKORLIGIMIZ SABAB

Barcha qulayliklarga ega bo'lgan maktab oromgohlari «Mahalla, maktab va oila» hamkorligi doirasida faoliyat yuritmoqda.

58-maktab qoshidagi «Boychechak» nomli oromgoh tarbiyachisi Malohat Abdaxalilova, 86-maktabdagi «G'uncha» oromgohi tarbiyachisi Olga Kublyakova, 240-maktabdagi «Kamalak»ning tarbiyachisi Muhabbat Nabiyeva bolajonlar o'rtasida tashkil

etilayotgan qiziqarli dam olish tadbirlarida doimo bosh-qosh.

– Hamkorligimiz, hamjihatligimiz sabab, barcha tadbirlarimiz maroqli va qiziqarli o'tmoqda, – deydi Yunusobod tuman Xalq ta'limi bo'limi uslubchisi Saodat opa Sultonova. – Zero, yozgi ta'limning ko'ngildagidek o'tishi, yil davomida bolajonlarning a'lo o'qishlariga zamin hozirlaydi.

G'OLIBA va OLMOS

Biz yozgi ta'limni maktabdagi «QUYOSHCHA» nomli oromgohda o'tkazaymiz.



QUVNOQ DAMLAR SABOG'I

U yerda turli milliy o'yinlar, sport musobaqalarini uyushtiramiz. «Mohir qo'llar», «Munchoq bilan tikish», «To'qish», «Yosh matematik», «Yosh o'lkashunoslar», «Yosh rassomlar», shaxmat-shashka, «Sport mening do'stimsan» singari to'garaklarga qatnashamiz. Kutubxonada kitoblar o'qiyamiz. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari Mastura va Gulsara opa Saydaliyevalar atrofimizda parvonalar.

Yaqinda sevimli shoirimiz Anvar Obidjon bilan ijodiy uchrashuv o'tkazdik. O'quvchilar shoirning

she'rilaridan yod olib, ular asosida sahna ko'rinishlari namoyish etdik.

Bundan tashqari, haftaning har juma kunlari istiqbolimizning 20 yilligiga bag'ishlab «Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatani!» nomli rasmlar, to'garak a'zolarining qo'l mehnati asosida ko'rgazmalar uyushtirilyapti.

Yurtimizning diqqatga sazovor joylariga sayohat qilamiz. Xullas, yozgi ta'limni maroqli o'tkazishimiz uchun barcha birdek bel bog'lagan.

Odina TURSUNBOYEVA,
Yunusobod tumanidagi
96-maktab o'quvchisi

O'QING, QIZIQ!

Xokkey darvozabonlarining yuz niqobini 1936-yilda birinchi bo'lib Berlinda Yapon darvozaboni Tanavi Xoimay kiygan.

Shashka o'yinida birinchi yurishning 7 ta yo'li mavjud.

Eramizdan avvalgi 776-yilda Olimpiada tarixida birinchi chempion Elida Koreb ismli oshpaz bo'lgan ekan.

1936-yilda stol tennisi bo'yicha turnirlardan birining ochilish marosimida polyak Aleks Enrlix va Rumin Panet Farkashlar bitta koptokcha bilan 2 soat to'xtamasdan o'ynashgan.



O'stinson VOSIXONOV rasmlaridan foydalanildi

TONG yulduzi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchesi:
Axtamqul KARIM

Gazeta
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tongyulduzi@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 33324
Buyurtma N: J 2285